

**KONSTITUTSIYA-INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA
ADOLAT GAROVI**

Umarov Ibrohim Jamshid o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada muallif O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadr-qimmati hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, undagi belgilangan rahbariy prinsiplarning boshqa qonun va qonunosti hujjatlarni qabul qilishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, undan ko'zlangan asosiy maqsad-insonni va uning hayotini e'zozlash kerakligini ochib berishga bag'ishlanadi.*

KALIT SO'ZLAR: *Konstitutsiya, qadr-qimmat, erkinlik, bosh qomus, milliy qadriyat, adolat, qonun, ijtimoiy davlat, umuminsoniy qadriyatlar*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi, ruhi-har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish va xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish, inson qadr-qimmati kabi umuminsoniy an'analarni o'zida to'la mujassamlashtirgan. Yangi O'zbekistonimizda Yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi milliy qadriyatlarimizni adolatli ijtimoiy jamiyat, adolat va tenglik prinsplariga asoslangan huquq va erkinliklarni himoya qiladigan, qo'llab-quvvatlaydigan jamiyat qurish yo'llarini belgilab berajak.

MUHOKAMA VA NATIAJALAR

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi huquqiy tizimida ijobiy yangilanishlar, fuqarolarga ko'pdan ko'p yengilliklar va huquqlarining ta'minlanishi belgilandi, va shu bilan birga, e'tiborni tortadigan jihati-uning dastlabki moddasi davlatimiz suveren, demokratik va dunyoviy davlat bilan bir qatorda, "ijtimoiy davlat" deb ham ta'kidlandi. Bu shuni anglatadiki, yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy sohada yangiliklar, xususan, ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan oilalarga moddiy yordam, ularning farzandlariga o'qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilishi bunga yaqqol misol bo'ladi. Qo'shimcha sifatida takidlash joizki, turli nogironligi bor shaxslarga ham ta'lim olishga, shuningdek, ishga kirishda ham imtiyozlar yaratilganligi, har qanday sohada

rivojlanishi uchun turli startaplarni, bizneslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, foizsiz stavkali kreditlar kabi yengilliklarning berilishi - O'zbekistondagi har bir shaxsning huquq va erkinliklari lozim darajada tenglik va adolat prinsplariga yondashgan holda amalga oshirilayotganidan darak beradi. Bu shuni anglatadiki, bosh qomusimiz - Konstitutsiyamiz O'zbekistonning har bir burchagidagi, har qanday ahvoldagi shaxslar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratadi, hatto O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan taqdirda ham, uning huquq va manfaatlarini muhofaza etadi. Zero, "adolat bir kishiga emas, hammaga barobar bo'lishi kerak" qabilidagi adolatlilik prinsipining asosi bo'lmish ushbu jumla asosiy qonunimiz moddalarida yaqqol aks etgani davlatimizning har tomonlama rivojlanayotgani mahsulidir. Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda insonlarning huquq va erkinliklari ko'lamini kengayib, tobora ortib borayotgani davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi o'z o'rnini topganligidan dalolat beradi.

Akademik, yuridik fanlar doktori, professor A. Saidov "Konstitutsiya muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida kishilik sivilizatsiyasining yutug'i, umuminsoniy qadriyat va demokratik taraqqiyotning yuridik asosidir", "Konstitutsiya bu dogma emas, balki u harakat uchun dastur bo'lishi kerak", "Konstitutsiya-huquqiy bilimlar alifbosidir" degan chuqur huquqiy-falsafiy fikrlarni bayon etgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiyasini o'rganish va bilish, unga rioya qilish va asosiy qonunimiz bilan faxrlanishimiz kerak deb hisoblaydilar. Yangilangan Konstitutsiyamiz muqaddimasida O'zbekistonning yagona xalqi: inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini oliy qadriyathisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlanishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, har bir moddaning qabul qilinishida aholi vakillari mas'uliyat bilan yondashishlari, har bir modda adolatlilik va inson qadr-qimmatini

kafolatlaydigan va huquq va erkinliklarini cheklamaydigan doirada qabul qilinishi “adolatli jamiyatda inson qadr-qimmat bilan yashaydi” degan yevropalik mashhur huquqshunos olimning naqliga monand tarzda o’zida aks ettirgan. Xususan, bosh qomusimizning 13-18-19 moddalarida ijtimoiy adolat va barcha fuqarolarga bir xil huquq va erkinliklarning berilishi takidlab o’tilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir” deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, suveren respublikamizning asosiy qonuni- inson va fuqaro huquqlarining demokratik xartiyasi bo’lib, u huquqiy va insonparvar davlatni shakllantirishning strategik dasturi vazifasini o’tab kelmoqda. Konstitutsiya-davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish-irodasining oliy ifodasi sifatida maydonga chiqdi. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga tayanish bilan birga, tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o’zida mujassam etgan huquqiy hujjat. Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda “Yangi O’zbekiston”, “Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat” kabi sharaftaxsh iboralar ishlatilyapti. Bu qo’lga kiritilayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakatdamiz. Yuksalish esa raqamli iqtisodiyotga o’tish, ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, innovatsion g’oyalar va texnologiyalar bilan boyitish, shu bilan birga, o’zligimizni, ma’naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir yurtdoshimiz bugun mamlakatimizda barq urib turgan bebaho ne’mat-tinchlik, totuvlik, barqarorlikning qadriga yetib, Uchinchi Renessans davri poydevoriga g’isht qo’yish, ya’ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo’shish uchun astoydil harakat qilmog’i lozim.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ayta olamizki, bugungi, har tomonlama rivojlanib borayotgan dunyoda, yetakchi va ilg’or mamlakatlar qatoridan o’z o’rniga ega bo’lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo’lgan, har jabhada mukammal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo’ladigan, ularning huquq va manfaatlarini taminlay oladigan va muhofaza qila oladigan qonun tizimining mavjudligi har bir davlatda adolat hukmronligi belgisidir. Xuddi mana shunday yuqorida ta’kidlaganlarimizni umumlashtirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson qadr-qimmatini yuqoriga ko’tarildi, huquqlari va erkinliklari doirasi kengaydi, tenglik asosida barchaga bir xilda imkoniyatlar yaratildi. Umumlashtirgan holda shuni ayta olamizki, Konstitutsiyamiz muhtaram prezidentimiz SH. Mirziyoyev aytganlaridek: “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari

xalqqa xizmat qilishi kerak’’ degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy, adolatli davlat qurishning asosiy kaliti, mezon bo’lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrda Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisida so’zlagan nutqi
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O’zbekiston, 2023
3. Konstitutsiya haqidagi maqolalardan parchalar